BARQAROR RIVOJLANISHI, YASHIL IQTISOD VA UNI BOSHQARISH OMILLARI.

Achilov Abror Niyatqobilovich

Farg'ona Davlat Universiteti, Moliya kafedrasi mudiri, dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil iqtisodiyotni boshqarishni ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qiladi. Bunda yashil iqtisodiyotning tushunchasining keng mohiyati, uning asosiy tamoyillari hamda boshqaruv turlari o'rganiladi. Shuningdek, mazkur maqola iqtisodiy o'sish va ekologik barqarolik ortasidagi muvozanatni hosil qilish usullari, yashil iqtisodiyotni to'gri boshqarish davlat tarraqqiyoting yanada yuksalishiga qoshishi mumkin bolgan hissalari kabi masalalar yoritiladi. Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida amalga oshirish istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Natijada, yashil iqtisodiyotning samarali boshqaruvi taminlash uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, Iqtisodiy o'sish, Atrof-muhit muhofazasi, Resurslardan samarali foydalanish, Ekologik innovatsiyalar, Ekologik boshqaruv, Yashil texnologiyalar, Qayta tiklanuvchi energiya, Davlat siyosati.

Аннотация:Данная статья анализирует научно-теоретические основы управления зелёной экономикой. В ней изучаются широкое значение понятия «зелёная экономика», её основные принципы и виды управления. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы достижения баланса между экономическим ростом и экологической устойчивостью, а также вклад правильного управления зелёной экономикой в дальнейшее развитие государства. Анализируется международный опыт развития зелёной экономики и обсуждаются перспективы его реализации в условиях Узбекистана. В завершение предлагаются рекомендации по обеспечению эффективного управления зелёной экономикой.

Ключевые слова: Зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая стабильность, экономический рост, охрана окружающей среды, эффективное использование ресурсов, экологические инновации, экологическое управление, зеленые технологии, возобновляемая энергия, государственная политика.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of green economy management. It examines the broad meaning of the concept of a green economy, its key principles, and management types. Additionally, the article explores methods for achieving a balance between economic growth and environmental sustainability, as well as the potential contributions of proper green

economy management to the further development of the state. The study also analyzes international experiences in green economy development and discusses the prospects for its implementation in Uzbekistan. Finally, recommendations are provided to ensure the effective management of the green economy.

Keywords: Green economy, sustainable development, environmental stability, economic growth, environmental protection, efficient use of resources, ecological innovations, environmental management, green technologies, renewable energy, state policy.

I. KIRISH

Yashil iqtisodiyot atrof-muhit va barqarorlik masalalarini iqtisodiy o‘sish bilan birlashtiradigan iqtisodiy asos hisoblanadi. U iqtisodiy rivojlanish va ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan bo‘lib, biz sayyoramizning yashashimiz uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarini tugatmasligimizni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan. Jadaallashib borayoatgan globallashuv davrida yashil iqtisod nafaqat ekologik va iqtisodiy muammolarni kamaytirishni maqsad qiladi, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ham kafolatlatlaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan 2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi"ga muvofiq, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yashil iqtisodiyotni boshqarishni ilmiy nazariy-tahlilini organish, yaqin yillarda butun jahon mamlakatlarida kuzatiladigan ekologik ozgarishlarni oldini olish va aholi turmush farovonligini yaxshilash uchun asosiy poydevor sanaladi. Shuningdek, mamalakatimizda bu sohani kelajagi porloq sanalib, uni rivojlantirish orqali bir qancha kafolatlangan natijalarga erishish mumkin.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish muammolarini o‘rganishga A.V Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, S. N. Xashimova S.N. David Pearce, Anil Markandya va Edward B. Barbierning David Pearce, Anil Markandya va Edward B. Barbierning Lipina S.A., Agapova Ye.V., Lipina A.V.S. N. Bobылyova, P. A. Kiryushina,O. V. Kudryavsevoy. N. V. Zubarevich, S. V. Solovyeva, Yu. S. Vlasov va boshqa mahalliy hamda xorijiy olimlarning hissasi katta

“Yashil iqtisodiyot” o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi S. Beder tomonidan aytib o‘tilgan. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish XXasrning 60-70-yillarida ommalasha

ISSN 3030-3907

boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotda an'anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan "atrof-muhit iqtisodiyoti", deb nomlangan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Beder. S. Ushbu yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternali, ya'ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirilishi zarurligini takidlab o'tgan[1].

David Pearce, Anil Markandya va Edward B. Barbierning asarlarida Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi "yashil iqtisodiyot" tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989 yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish rejasi", deb nomlangan hisobotda foydalanilgan [2].

Xashimova S.N. -"Yashil" iqtisodiyot, bu odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir deb ta'riflagan[6].

III. NATIJALAR

Sayyoramizda yaqin kelajakda kuzatishi mumkin bolgan tabiy ofatalr va ekologik muammolarni oldindan kora bilish va ularni sodir bolishini oldini olish uchun koriladigan yorqin chora tadbirlardan biri yashil iqtisodiyot tushunchasidir. Bu konsepsiyaning yaralishi uzoq otmishga borib taqalmaydi, XX asrning ikkinchi yarmida ekologik muammolar keng ommani tashvishga sola boshlagan davrda sodir boldi. Dastab britaniyalik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan ''Yashil iqtisodiyot uchun loyiha'' nomli hisobotda ishlatilgan bu termin 2000-chi yillarga kelib keng qamrovli ommaning etiborini oziga tortdi. Ho'sh nega aynan bugungi kunga kelib yashil iqtisodga katta etibor berilmooqda va nega uni boshqarishni tahlil qilish muhim? Kunlik hayotimiz davomida har doim kozimiz tushadigan global isish, muzliklarni erishi va korxonalar chiqarayotgan zaxarli gazlar togirisidagi yangliklarni korish allaqachon odatiy holatga aylangan. Shu muammolarni iqtisodiy hal qilgan holda barcha sohalrni ekologiyaga zarzar yetkazmagan holda rivojlanish yashil iqtisodiyotga misol bola oladi. Bu tushunchani yaxshiroq anglab yetishimiz uchun uning quyidagi 4 ta turini korib chiqamiz:

1. Past uglerodli iqtisodiyot- bu o'z nomiga hos ravishda atmosferaga chiqayotgan uglerod miqdorini kamaytishiga qaratilgan yashiil iqtisodiyotning bir

ISSN 3030-3907

yondashuvui sanaladi. Quyosh, shamol, gidroenergetika kabi alternativ energiya manbalaridan foydalanish bu yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi.

2. Aylanma iqtisodiyot- resuslardan samarali foydalanish, chiqindi mahsulotlar miqdorini kamaytirish va mahsulotlarni qayta ishlashni oz ichiga olgan yashil iqtisodiyotning turidir. Unda mahsulotning ishlatilish davrini uzoqlashtirish orqali homashyoga bolgan bosimini kamaytirish muhim vazifa sifatida qaraladi.

3. Ekologik qishloq ho‘jaligi- yashil iqtisodiotning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sanalib, ekologik jihatdan toza va tabiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga asoslangan. Bunda qishloq ho‘jaligida foydalanayotgan kimyoviy ogitlar va pestisidlar miqdorini kamaytirish talab qilinadi. Ekologik qishloq hojaligi atrof muhitni himoya qilib qolmay, tabiy va soglom mahsulotlarni istemol qilish imkonini beradi

4. Yashil transport tizimi- yashil iqtisodiyotning bo‘lagi sifatida shakillanayotgan boryapti. Ananaviy yoqilgi turlarining orniga eletr va vodorot yoqilgi vositalridan foydalanish, velosiped va boshqa turdagi ekologiyaga kam zarar keltiradigan transport turlaridan foydalish orqali bu tizimni yanada rivojlantirish mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha yashil iqtisodiyot turlarining umumiy maqsadi esa ekologik muvozanatni saqlash sanaladi.

Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki Yashil iqtisodiyot turli tarmoqlarda qo‘llanilishi bilan birga, uning umumiy tamoyillari ham mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Misol uchun, tabiiy resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda, ularni tejash va muqobil manbalarni rivojlantirish muhim sanaladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish imkonini ham beradi. Shuningdek, Har qanday ishlab chiqarish jarayoni ekologik xavfsizlik talablariga javob berishi kerak. Havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi lozim. Korxonalar va uy xo‘jaliklarida energiya sarfini optimallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish yashil iqtisodiyotning muhim shartlaridan biridir. Yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlar yordamida energiya iste’molini kamaytirish barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Yashil iqtisodiyot inson kapitalini rivojlantirish va sifatli ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan. Xususan, ekologik toza texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va ekologik toza ishlab chiqarish usullari bu jarayonning ajralmas qismi sanaladi.

ISSN 3030-3907

Yashil iqtisodiyotni to‘g‘ri boshqarish davlat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu jarayon uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bilan birga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Quyida yashil iqtisodiyotni samarali boshqarish orqali davlat taraqqiyotiga qo‘shiladigan asosiy hissalar haqida batafsil ma’lumot beramiz. ***Birinchidan,*** yashil iqtisodiyot innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Zamonaviy ekologik toza texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarining joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirib, ishlab chiqarishning energiya tejamkor bo‘lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyosh va shamol energetikasiga investitsiyalar kiritish nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydi, balki uzoq muddatda energiya narxining barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. ***Ikkinchidan***, yashil iqtisodiyot davlat budjetiga barqaror daromad oqimini ta’minlaydi. Masalan, chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash orqali qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratish va ushbu jarayonda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish mumkin. Shuningdek, ekologik soliq tizimini shakllantirish va korxonalarning ekologik me’yorlarga rioya etishini rag‘batlantirish orqali davlat iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. ***Uchinchidan,*** yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toza ichimlik suvi, toza havo va ekologik barqaror yashash muhiti aholining sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada sog‘lom va mehnatga layoqatli aholi sonining ortishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bundan tashqari, yashil shahar infratuzilmasini rivojlantirish va barqaror transport tizimlarini joriy etish orqali turmush sifatini yanada yaxshilash mumkin. ***To‘rtinchidan***, yashil iqtisodiyot xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashadi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotni to‘g‘ri boshqarish orqali davlat ekologik investitsiyalar va texnologik ko‘makdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xususan, xalqaro moliyaviy institutlardan ajratiladigan mablag‘lar yashil iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashadi. ***Beshinchidan,*** yashil iqtisodiyot qishloq xo‘jaligi va sanoatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ekologik toza qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish natijasida tuproq unumdorligini oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va agroekotizimni himoya qilish mumkin. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, yashil iqtisodiyotni to‘g‘ri boshqarish davlatning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu model energiya tejamkorlikni oshirish, ekologik tozalikni ta’minlash, sog‘lom jamiyat yaratish va


ISSN 3030-3907

xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va samarali boshqarish kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratadi [5].

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ham bu sohaga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa so‘ngi 7 yil davomida prezidentimiz Shavkat Miramonivich Mirzizayev tomonidan olg’a surilgan bir qancha samarali tashabbuskorliklar tufayli yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda rivojlanishi jadallashdi hamda 2025-yil “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb nomlandi. Shu kabi bir qancha islohotlar yashil iqtisodiyotning O‘zbekiton Respublikasida qay tarzda taraqqiy etayotganinga misol bo‘la oladi. Yuqorida eslab o‘tkanimizdek, 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” ni ishlab chiqdi. Bunga muvofiq, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi yashil iqtisodiyotni ilgari surish va “yashil” o‘sish tamoyillarini joriy etish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilandi. 2023-yil 1-iyundan boshlab esa mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta’sirni cheklash bo‘yicha “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etilishi rejalashtirilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida ham muhim qadamlar tashlanmoqda. 2021-yilda Navoiy viloyati Karmana tumanida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Shu bilan birga, Samarqand viloyatining Nurobod tumanida ham quvvati 100 MVt bo‘lgan yirik quyosh fotoelektr stansiyasi foydalanishga topshirildi. 2030-yilgacha O‘zbekistonda umumiy quvvati 7000 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish bo‘yicha yettita yirik loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda[7].

Quyidagi chiziqli garifik orqali O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi 4 ta yo‘nalish misolida 2019- yildan to hozirgcha va yaqin kelakadagi ya’ni 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda qay tarzda o‘sgani tasvirlangan:

ISSN 3030-3907



1-rasm. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari

Tasvirlangan ma’lumotlarni to‘liqroq tahlil qilar ekanmiz, quyosh energiyasidan foydalanish ko‘rsatkichlari izchil oshib bormoqda. Agar 2019-yilda quyosh energetikasining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi atigi 5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 70 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. O‘zbekistonning tabiiy sharoitlari quyosh energiyasidan keng miqyosda foydalanish imkonini bergani sababli, bu boradagi loyihalar jadal rivojlanmoqda. Shamol energetikasi bo‘yicha ham ijobiy tendensiya kuzatilmoqda: 2019-yilda bor-yo‘g‘i 2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 45 foizga yetishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatning muqobil energiya manbalariga tobora ko‘proq e’tibor qaratayotganini tasdiqlaydi. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda chiqindilarni qayta ishlash tizimi alohida o‘rin tutadi. 2019-yilda bu ko‘rsatkich 15 foiz bo‘lsa, 2030-yilda 80 foizga yetishi rejalashtirilgan. Bunday natijaga erishish chiqindilarni ajratish tizimini takomillashtirish, zamonaviy qayta ishlash uskunalarini joriy etish va ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, energiya samaradorligini oshirish borasida ham aniq maqsadlar belgilangan. 2019-yilda energiyani tejamkor ishlatish darajasi 10 foiz bo‘lsa, 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich 75 foizga yetishi rejalashtirilgan. Bu sanoat va transport sohalarida energiya sarfini kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablar asosida optimallashtirish orqali amalga oshirilmoqda [7]. Umuman olganda, ushbu tendensiyalar O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining

ISSN 3030-3907

uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishlarning izchil rivojlanishi O‘zbekistonni ekologik jihatdan toza va innovatsion iqtisodiyotga ega davlat sifatida shakllantirishga yordam beradi.

V. XULOSALAR

Yashil iqtisodiyot bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki ekologik barqarorlikni saqlash orqali kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, uning boshqaruv turlari va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilindi. Ayniqsa, past uglerodli iqtisodiyot, aylanma iqtisodiyot, ekologik qishloq xo‘jaligi hamda yashil transport tizimining mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston misolida olib qaralganda, so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilganini kuzatish mumkin. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar va qabul qilingan dasturlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etishda muhim omil bo‘lmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyotning to‘g‘ri boshqarilishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, bu sohaga doir islohotlarni yanada jadallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik tafakkurni keng yoyish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Kelajakda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va uning xalqaro maydondagi ekologik tashabbuslarda yetakchi pozitsiyani egallashiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [1] Beder, S. Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 2011, 38, no. 2, pp. 140-150.
2. [2] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Sh.X.va boshkalar. . Yashil iktisodiyot: Darslik. /. Yashil iktisodiyot: Darslik. / —Toshkent.: “ Universitet” , 2020. -262 b.
3. [3] David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier.Blueprint for a Green Economy: Earthscan, London, GreatBritain, 1989. 192 pp.
4. [4]Lipina S.A., Agapova Ye.V., Lipina A.V.L. Zelenaya ekonomika. Globalnoye razvitiye. - M.: Izd-vo Prospekt, 2016. -s. 234, tiraj 500 ekz.

ISSN 3030-3907

5. [5]Zelyonaya ekonomika i syeli ustoychivogo razvitiya dlya Rossii: kollektivnaya monografiya / pod nauch. red. S. N. Bobылyova, P. A. Kiryushina,O. V. Kudryavsevoy. — M.: Ekonomicheskiy fakultet
6. [6] Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T .: “Ma’rifat”, 2024. 224 bet.
7. [7] O‘zbekiton Respublikasi prezidenti yashil iqtisodiyot to‘g’risidagi qarori (PQ-4477 04.10.2019).
8. [8]Food and Agriculture Organization https:// www.fao. org/faolex/results/details/en/c/LEX-FAOC197240/.
9. [9]World1Bank.https://documents1.worldbank.org/curated/en/ 099240007072223752/pdf/ P1771080edd66408f0bcd9015de19bc66dc.pdf.
10. [10]Global Green Growth Institute https://gggi.org/country/uzbekistan/
11. [11]O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi https://mininnovation.uz.
12. [12]Корнева А.А. “ Зеленая” экономика и цифровизация в экономической основе концепции устойчивого развития // Научный сетевой журнал “Интеграл” №4/2022.

ISSN 3030-3907